

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 5/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ismoilov Ubaydulla Mamat o'g'li

SUYIRLITEPA YODGORLIGIDA OLIB BORILGAN ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

VA TOPILGAN AYRIM TANGALAR TAHLILI 11-19

Saidboboyeva Gulzora Nematjonovna

O'ZBEKISTON ELEKTR ENERGETIKA SANOATI RIVOJIDA D.P.ROZITNING O'RNI 20-24

Umarov Sardor Yakubovich

XX ASRNING OXIRI-XXI ASR BOSHIDA GERMANIYA DAVLAT MOLIYASI VA

BIRLASHTIRISHNING MOLIYAVIY OQIBATLARI..... 25-31

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich

AHOLINING LOKAL-ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULAR BILAN BOG'LIQ

TOPONIMLAR 32-37

Olimov Nodirbek Anvarjon o'g'li

QO'QON XONLIGI ETNIK HOLATIGA OID MA'LUMOTLAR

(“TARIXI SHOHRUXIY” ASARI MISOLIDA) 38-41

Mo'minov Xusanboy Madaminjonovich, Daminova Mashhuraxon

DAVRIY MATBUOT VA UNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O'RNI..... 42-45

Ahmedov Bahodir Ismailovich

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASINING

TARIXIY BOSQICHLARI 46-55

Ravshanov Mahmud

ALISHER NAVOIYNING ASARLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN

FOYDALANISH MAHORAT: YECHIMLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUV MASALALARI..... 56-59

Asadova Ra'no Baymanovna

O'ZBEKISTON VA HINDISTON O'RTASIDAGI ILM-FAN HAMKORLIGI TARIXI

VA ZAMONAVIY BOSQICHLARI 60-64

Qurbonova Marg'uba

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TIL SIYOSATI EVOLYUTSIYASI

VA MILLIY IDENTITETNI SHAKLLANTIRISH JARAYONLARI

(1991–2025 YILLAR TAHLILI) 65-68

Kamolova Habiba Muhammadiyevna

SOBIQ SOVET HOKIMIYATI YILLARIDA SHAHRISABZ IQTISODIY

INFRATUZILMASIDAGI ZIDDIYATLI O'ZGARISHLAR 69-74

Ergashev Umar Kuziyevich

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGI G'UZOR BEKLIGI AHOLISI

TARIXI (HARDURI ETNOGRAFIK GURUHI MISOLIDA) 75-79

Ergashev Akhror

THE FACTORS THAT HAVE LED TO INTERNAL CRISES IN PAKISTAN,

AND THE SUBSEQUENT STRENGTHENING OF THE MILITARY'S ROLE

IN THE COUNTRY'S POLITICAL LIFE 80-88

<i>Qurbonov Abbos Shonazarovich</i> SUN'YIY INTELLEKT YORDAMIDA ARXIV HUJJATLARINI TAHLIL QILISH: YANGI TARIXIY YONDASHUVLAR	89-93
<i>Esanova Nilufar</i> CHET EL INVESTITSİYALARINING O'ZBEKISTON SANOAT SIYOSATIDAGI O'RNI: XALQARO HAMKORLIK TAJRIBASI ASOSIDA TAHLIL (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	94-97
<i>Askarxodjayev Yaminxon Muxammedovich</i> "MAORIF VA O'QUTG'UCHI" JURNALI "MEHNAT MAKTABI NIMA DEMAK?" MAQOLASIDA O'ZBEKISTON SSRDA AMALIY TA'LIM G'OYASINING DASTLABKI NAZARIY ASOSLARI (1925-YIL, 1-SONI MISOLIDA)	98-105
<i>Ismatova Zulfizar</i> O'ZBEK MILLIY KIIYIMLARINING TAVSIFI VA TASNIFI	106-114
<i>Abdualimova Durdona Shavkat qizi</i> G'AZNAVIYLAR QUDRATINING YEMIRILISH NUQTASI.....	115-125
<i>Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna</i> YOSHLARNI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH – TADQIQOTLARNING MUHIM YO'NALISHI	126-129
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> ILMIY RAHBARLIK VA INNOVATSION BOSHQARUVDA O'ZBEK AYOL OLIMALARINING ROLI	130-134
08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI	
<i>Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna</i> O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA GEOLOGIYA VA YENGIL SANOAT TARMOQLARI O'RTASIDAGI INTEGRATSIYANING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	135-142
<i>Jumaniyazov Nodirbek Odilbek o'g'li</i> MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SANOAT TARKIBIY O'ZGARISHLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	143-151
<i>Sharipova Gulchehra Farhod qizi</i> IMPROVING THE PRACTICAL MECHANISM OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT BASED ON FOREIGN EXPERIENCE: IN THE CASE OF JAPAN	152-157
<i>Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li</i> MARKAZIY OSIYO DAVLATLARIDA MAHALLIY BOSHQARUV TIZIMLARIDA SUN'IY INTELLEKT QO'LLASH TAJRIBASI: O'ZBEKISTON UCHUN XULOSALAR	158-162
<i>Sharopov Nurmuhammad Bobirovich</i> DAVLAT SIYOSATI VA YASHIL IQTISODIYOT: SUBSIDİYALAR, SOLIQ VA RAG'BATLAR	163-166
<i>Ibragimov Nodir Nusriddinovich</i> AGRAR SEKTORNI INNOVATSION RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA EKONOMETRIK PROGNOZLASH USHLARINING TAKOMILLASHTIRILGAN YONDASHUVLARI	167-174

<i>Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich</i> CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH HAJMINI OSHIRISHDA BOZOR MEXANIZMLARINI RIVOJLANTIRISH.....	175-179
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Raupova Ra'no Sohibovna</i> GLOBALASHUV VA AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA IBN SINO MEROSIDAN FOYDALANISH.....	180-184
<i>Mamayusupov Umidjon Kurbanovich</i> JAMIYATNI BOSHQARISHDA ILMIY BASHORATNING METODOLOGIK VA PROGNOSTIK VAZIFALARI	185-189
<i>Ergashev Ozodbek Shavkatovich</i> YANGI DAVR G'ARB FALSAFASIDA INSON MUAMMOSI	190-194
<i>Alimova Shaxnoza Xamidovna</i> NOGIRONLIGI BO'LGAN YOSHLARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI TO'LAQONLI ISHTIROKI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR	195-205
<i>Tolipov Baxtiyor</i> YOSHLAR IQTISODIY FAOLLIGINING TARIXIY GENEZISI VA RIVOJLANISH OMILLARI	206-211
<i>Rasulov Azizxon Mukhamadqodirovich</i> AXBOROT TIZIMLARI, MAHSULOTLARI VA XIZMATLARIDAN AXBOROT BIZNESI MUHITINI YARATISH ASOSLARI.....	212-218
<i>Abdullayeva Ziyoda Nabiyevna</i> RAQAMLI JAMIYATDA AXLOQIY ISHONCHNI AVTOMATIK BAHOLASH TIZIMI	219-225
<i>Yekubova Mavluda Iskandarovna</i> RAQAMLASHGAN JAMIYATDA KOMMUNIKATIV REALLIK VA KOMMUNIKATIV RATSIONALLIK	226-232
<i>Madraximov Atabek Abduraximovich</i> EKOLOGIK TARBIYA HAMDA BILIM – EKOLOGIK MADANIYAT POYDEVORI	233-238
<i>Рахматов Нуриддин Негкадамович</i> МЕХАНИЗМ РАЗВИТИЯ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ ХУСЕЙНА ВОИЗА КАШИФИ	239-243
<i>Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna</i> YOSHLAR ORASIDA GIYOHVAND MODDALAR VA SPIRTLILIKLARGA QIZIQISHNING IJTIMOYIY SABAB VA OQIBATLARI	244-247
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich, Saidov Shomahmud Azamat o'g'li</i> INSON FALSAFASI	248-252
<i>Baratova Madina Xasanovna</i> KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOYIY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOYIY OMILLAR	253-259
<i>Ismoilov Maxamadixon Isroilovich</i> IQTISODIY ADOLAT VA FAROVONLIK FALSAFASI: ETIK TAMOYILLAR VA IJTIMOYIY NOMUTANOSIBLIKLAR TAHLILI	260-269
<i>Obidov Asliddin Shavkatovich</i> COSMIC UNITY AND MORAL CONSCIOUSNESS: REINTERPRETING FARGHANI'S COSMOLOGY THROUGH CHITTICK'S LENS	270-274

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Kaniyazova Jupargul Orinbayevna</i> THE RETROSPECTIVE PLOT IN THE SHORT NOVELS OF CH. AITMATOV	275-280
<i>Алиева Эльвина Аметовна, Нуруллаева Дилбар Алиевна</i> СПОСОБЫ ВЫРАЖЕНИЯ СРАВНЕНИЯ НА ЛЕКСИЧЕСКОМ, СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНОМ И МОРФОЛОГИЧЕСКОМ УРОВНЯХ (НА МАТЕРИАЛЕ РАССКАЗОВ А. И. КУПРИНА)	281-285
<i>Sanaqulova Fayoza</i> REKLAMA MATNLARIDA METAFORA TURLARI VA YONDOSH HODISALAR	286-289
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> THE THEME OF EXILE AND ALIENATION IN BYRON'S POETRY	290-293
<i>Norqobilova Nigora Uralovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI OLQISH VA QARG'ISH SO'ZLARING LINGVOMADANIY SHARTLANISHI	294-298
<i>Ahmedova Fayyoza Rashidovna</i> O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING INFRATUZILMAVIY, RAQAMLI VA SOTSIOMADANIY DRAYVERLARI	299-306
<i>Elmuratova Zamira Khodjamuratovna</i> SOME PECULARITIES OF ENGLISH, KARAKALPAK AND TURKMEN PROVERBS ABOUT LABOR	307-310

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Sultanova Sabohat Alisherovna</i> FURTHER DEVELOPMENT OF THE INSTITUTE FOR ASSESSMENT OF REGULATORY IMPACT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AS AN ELEMENT OF "SMART REGULATION"	311-317
<i>Qushboqov Shohrux Xasan o'g'li</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARINING TURLARI VA ULARNING FUQAROLIK-HUQUQIY MAQOMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR	318-328
<i>Egamberdiyev Vohidjon Otabekovich</i> JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN OZOD ETILGAN SHAXSLARNI IJTIMOY REABILITATSIYA QILISH VA MOSLASHTIRISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH	329-339
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLAR PROFILAKTIKASI BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIK NORMALARI TAHLILI	340-346
<i>Leonid Khvan Borisovich, Zilola Gulimova</i> THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN PUBLIC ADMINISTRATION	347-353
<i>Normatova Shirin Abdalnabiyevna</i> XOTIN-QIZLARGA NISBATAN ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASH BO'YICHA MILLIY QONUNCHILIKDAGI BO'SHLIQLAR TAHLILI	354-362

<i>Каюмова Асая Султномуродовна</i> ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВЫЕ РЕФОРМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПРАКТИЧЕСКИЕ РЕЗУЛЬТАТЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ	363-368
<i>Abdullayeva Sabohat Asatullo qizi</i> KRIPTOAKTIVLARGA OID JINOYATLAR VA XALQARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ...	369-377
<i>Imomniyozov Doniyorbek Baxtiyor o'g'li</i> VIRTUAL MULKNING HUQUQIY REJIMI: SUI GENERIS YONDASHUV	378-392
<i>Amonov Zavqiddin</i> ISLOM HUQUQIDA MULKIY HUQUQLAR PARADIGMASI	393-400
<i>Saidmuradov Najmiddin Nabijonovich</i> YUQORI INSTANSIYA SUDLARIDA PROKUROR ISHTIROKINING JINOYAT-PROTSESSUAL JIHATLARI	401-405
<i>Makhmudjanova Mokhirakhon</i> ANALYSIS OF INTERNATIONAL EXPERIENCE IN ENSURING GENDER EQUALITY	406-411
<i>Нормуродова Азиза Азимжон кизи</i> СЕКСУАЛЬНОЕ НАСИЛИЕ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИЗОБРАЖЕНИЙ: ПОНЯТИЕ, ФОРМЫ И ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ	412-418

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Utkirov Nusrat</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA HARAKAT SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA MUAMMOLI- MODULLI YONDASHUVLAR	419-424
<i>Jamolova Shahlo Qobilovna</i> BO'LAJAK FIZIKA FANI O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI DASTURIY TA'LIM VOSITALARIDAN FOYDALANIB RIVOJLANTIRISH METODIKASI ("REAL GAZLAR. MOLEKULALARARO O'ZARO TA'SIR. REAL GAZLAR. VAN-DER-VAALS TENGLAMASI" MAVZU MISOLIDA)	425-428
<i>Rasulova Moxidil</i> TIBBIYOT TA'LIMI TIZIMIDA FUNDAMENTAL FANLARNI O'ZLASHTIRISHDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING ASOSIY SABABLARI VA DIDAKTIK IMKONIYATLARI	429-438
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i> ANESTEZIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ENTRUSTABLE PROFESSIONAL ACTIVITIES (EPA) TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANIB TALABALARGA MALAKAVIY TA'LIM BERISH	439-445
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i> BO'LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING KREATIV IQTISODIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA PROBLEMALI VA LOYIHALI O'QITISH TEXNOLOGIYALARI	446-449

Received: 20 October 2025
Accepted: 15 November 2025
Published: 30 November 2025

Article / Original Paper

ENSURING THE SOCIAL ACTIVITY OF CHILDREN FROM LOW-INCOME FAMILIES: INDIVIDUAL AND SOCIAL FACTORS

Baratova Madina Xasanovna

Independent Researcher, Bukhara State University

E-mail: baratovamadina@gmail.com

www.orcid.org/0009-0004-4508-1999

Abstract. This article analyzes the issue of enhancing the social activity of children from low-income families from a socio-pedagogical perspective. The study examines both individual factors (personal motivation, self-awareness, psychological readiness) and social factors (family environment, influence of school and community, state social support). The research highlights the importance of cooperation between educational institutions and community organizations in fostering social activity among children from low-income families.

Keywords: social activity, low-income families, individual factors, social factors, pedagogical support, motivation, social environment, education system.

KAMBAG'AL OILA FARZANDLARINING IJTIMOY FAOLLIGINI TA'MINLASH: INDIVIDUAL VA IJTIMOY OMILLAR

Baratova Madina Xasanovna

Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligini oshirish masalasi ijtimoiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy faollikka ta'sir etuvchi individual (shaxsiy motivatsiya, o'zini anglash, psixologik tayyorgarlik) hamda ijtimoiy omillar (oila muhiti, maktab va jamoatchilik ta'siri, davlat ijtimoiy qo'llab-quvvatlovi) o'rganilgan. Maqolada kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligini shakllantirishda ta'lim muassasalari va mahalla institutining o'zaro hamkorligi samarali omil sifatida asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy faollik, kambag'al oila, individual omillar, ijtimoiy omillar, pedagogik qo'llab-quvvatlash, motivatsiya, ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI10Y2025N40>

Kirish. Kambag'allik tushunchasi falsafiy va ijtimoiy muammo sifatida insoniyat tarixi davomida diqqat markazida bo'lib kelgan. An'anaviy jihatdan kambag'allik moddiy ne'matlar va resurslar yetishmasligi, ya'ni shaxs yoki oilaning asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur darajadagi daromad va mol-mulkka ega emasligi sifatida ta'riflanadi. Lekin zamonaviy falsafiy yondashuvlar bu tushunchani faqat iqtisodiy mezonlar bilan cheklab qolmaydi. Masalan, iqtisodchi va faylasuf Amartiya Sen kambag'allikni faqat daromad kamligi emas, balki insonning "imkoniyati mahrumligi" (capability deprivation) sifatida qayta tushunishni taklif qiladi. Ya'ni, kambag'allik natijasida shaxs o'z salohiyatini amalga oshirish, jamiyatda munosib hayot kechirish uchun zarur bo'lgan asosiy imkoniyatlardan mahrum bo'ladi.

Bu yondashuvga binoan, kambag'allikni bartaraf etish nafaqat daromadni oshirish, balki insonning hayotda "nima qila olishi va qanday bo'la olishi" (Amartiya Senning imkoniyatlar nazariyasi tilida) uchun sharoit yaratishni ham talab qiladi. Shu ma'noda, kambag'allikni faqat iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali emas, balki ta'limga, sog'liqni saqlashga, madaniyat va ijtimoiy hayotga kirish imkoniyati kabi ko'p qirrali mezonlar orqali baholash adolatliroqdir. Falsafiy nazariyalarda (xususan, adolat va tenglik haqidagi qarashlarda) kambag'allikni kamaytirish – jamiyatda adolatni ta'minlashning bir shartlaridan biri sifatida ko'riladi.

Muhokama va natijalar. Ijtimoiy faollik tushunchasi esa shaxsning yoki ijtimoiy guruhning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z huquq va burchlarini ongli ravishda amalga oshirishi, jamoat ishlarida, mehnat va madaniy-ma'rifiy sohalarda faol bo'lishi ma'nosini bildiradi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, ijtimoiy faollik – ijtimoiy subyektlar (jamiyat, qatlam, guruh va shaxslar)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokining, mehnat hamda madaniy-ma'rifiy faoliyatining kuchayishi, qonunda belgilab qo'yilgan huquq va burchlarini to'liq amalga oshirishga intilishi sifatida ta'riflanadi. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyatda o'z o'rnini topishi va o'z xulq-atvorini ongli ravishda boshqarishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak, inson ijtimoiy mavjudot (Aristotel ta'biri bilan aytsak, "zoon politikon" – siyosiy/ijtimoiy hayvon) bo'lgani sababli, jamiyatda faol bo'lib yashash, o'zi mansub bo'lgan jamoa hayotida ishtirok etish – insonning tabiiy ehtiyojidir. Shu bois kambag'allik muammosini faqat moddiy yoki iqtisodiy jar yoki cheklov deb emas, balki insonning jamiyatda to'laqonli ishtirok etish huquqi va imkoniyati nuqtai nazaridan ham tahlil qilish zarur [1].

Falsafiy va ijtimoiy nazariyalarda ijtimoiy faollik insonning agentligi, ya'ni mustaqil qaror qabul qilib, jamiyatga ta'sir o'tkazish qobiliyati bilan bog'liq. Kambag'allik esa bu agentlikni cheklaydi: resurslar, ta'lim, salomatlik yetishmasligi insonning tanlovlarini qisqartiradi va ijtimoiy faol ishtirokini kamaytiradi. Jonatan Volf ta'kidlaganidek, kambag'allikni yengish faqat moddiy ta'minot emas, balki insonning jamiyatda o'zini to'laqonli a'zo sifatida his etishi uchun sharoit yaratishni ham o'z ichiga oladi.

Kambag'allik va ijtimoiy faollik o'zaro chambarchas bog'liq: qashshoqlik aholining ijtimoiy hayotdagi ishtirokini kamaytiradi, ijtimoiy faollik past bo'lgan jamiyatda esa teng imkoniyatlar yetishmasligi kambag'allikni kuchaytiradi. Shu bois adolatli jamiyat qurish uchun kambag'allikni kamaytirish bilan birga, kambag'al qatlam vakillarining ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash zarur.

Kambag'al oilalarda ulg'ayayotgan bolalar jamiyatning eng himoyaga muhtoj toifasidir. Ular moddiy va ma'naviy cheklovlar sabab sog'liq, ta'lim va rivojlanish imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi. Masalan, YuNISEF ma'lumotlariga ko'ra, kambag'al oilalardagi bolalar ta'lim va sog'liq xizmatlaridan yetarli darajada foydalana olmaydi, bu esa ularning kelajakda ham qashshoqlik doirasida qolish xavfini oshiradi.

O'zbekistonda bolalar kambag'alligi darajasi 2021-yilda 21,5% bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 13,7% gacha kamaygan. Biroq bu ko'rsatkich hamon ko'plab bolalarning imkoniyatlari cheklanganini anglatadi. Kambag'al bolalar ko'pincha jamiyatda kamsitilish, stigma yoki o'zini past baholash holatlariga duch keladi, bu esa ularning ijtimoiy faolligini pasaytiradi [2]

Moddiy qiyinchiliklar ularning ta'limga, to'garak va madaniy faoliyatlarga qatnashish imkoniyatini cheklaydi. Ayniqsa qishloq joylarda sifatli ta'lim olish, bog'chaga borish imkoniyati past. Ko'p hollarda bunday bolalar oilasiga yordam berish uchun ishlashga majbur bo'ladi, natijada ta'limdan chetda qoladi va kambag'allik avloddan-avlodga o'tadi.

Shuningdek, kambag'allik ruhiy jihatdan ham salbiy ta'sir ko'rsatadi: "o'rganilgan ojizlik", o'z kuchiga ishonchsizlik, tushkunlik va passivlik holatlari shakllanadi. Bu holat ularning kelgusidagi ijtimoiy faolligini yanada cheklaydi.

Ammo to'g'ri qo'llab-quvvatlash — ta'lim imkoniyatlari, stipendiya, to'garaklar, psixologik yordam va tenglashtiruvchi choralarning joriy etilishi — kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligini oshiradi. Ta'lim esa kambag'allikdan chiqish va ijtimoiy yuksalishning eng muhim omilidir. Shu bois kambag'al oila farzandlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash — jamiyat barqarorligi va adolatining kafolatidir.

Kambag'al oiladan chiqqan yoshlar ijtimoiy faolligiga ta'sir etuvchi yana bir individual omil – ularning orzu-intilishlari va hayotiy maqsadlari darajasidir. "Katta orzu" qilish, kelajakka umid bilan qarash ham katta darajada insonning bolalikda olgan tarbiyasi, atrof-muhitiga bog'liq. Kam ta'minlangan muhitda o'sgan bolalarning hayotiy intilishlari ba'zan pastroq chegaralanadi: ular bor-yo'g'i sodda, ozroq kafolatlangan hayot tarzini orzu qilishi mumkin (masalan, bir hunar egallab, tezroq pul topish), chunki atrofida boshqa namuna yo'q. Bayroq, ayrim bolalar aksincha, qiyinchiliklarni ko'rgani sabab yuqori maqsadlar qo'yib, kambag'allik davrasida chiqishga qat'iy harakat qilishi mumkin.

Masalan, kambag'al oiladan chiqqan ba'zi o'quvchilar o'qishda yuqori natijalarga erishib, universitetga kirib ketishni, shifokor, muhandis yoki olim bo'lib, oilasini qashshoqlikdan olib chiqishni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Ammo shunday intilishlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish juda muhim: agar jamiyat yoki ta'lim tizimi bunday yoshlarning intilishlarini qo'llab-quvvatlamasa, ularning orzulari so'nib qolishi mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qashshoq oilalardan chiqqan yoshlarning ta'lim va kasbga doir intilishlari, umuman, boy oilalar yoshlariga nisbatan pastroq va o'ziga nisbatan ishonchi kamroq bo'lar ekan. Lekin bu farqni bartaraf etish mumkin – agar ularga maslahatchilar, ustozlar biriktirilsa, muvaffaqiyat qozongan kumirlar misolida motivatsiya berilsa, aynan orzu-maqsadlar bolaning hayot yo'lini belgilab beradigan kuchli omilga aylanishi mumkin.

Individual omillar – shaxsiy psixologik holat, ta'lim va ko'nikmalar, orzu va intilishlar – kambag'al oila bolasining ijtimoiy faolligida markaziy ahamiyatga ega. Kambag'allik sharoiti bu omillarga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, to'g'ri yondashuv va qo'llab-quvvatlash orqali bu bolalarning ichki salohiyatini yuzaga chiqarish mumkin. Shu bois, kambag'allikka qarshi kurash faqat moddiy yordam berish bilan cheklanmasdan, bolalarning ruhiy-ma'naviy jihatdan rivojlanishi, ularning ta'lim olishi va katta orzular qila olishi uchun sharoit yaratishga qaratilmog'i lozim.

Kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligiga ta'sir etuvchi omillarning ikkinchisi – ijtimoiy muhit va sharoitlardir. Bunda, avvalo, jamiyatning munosabati va madaniy muhitni ta'kidlash zarur. Jamiyatda kambag'allikka nisbatan qanday qarash mavjudligi bevosita kam ta'minlangan qatlam vakillarining ijtimoiy hayotda tutgan o'rniga ta'sir qiladi. Agar jamiyatda kambag'allik ayblanayotgan, kambag'allar xo'rlanayotgan bo'lsa, bu holat ularni yanada chetlashtiradi. Ayrim hollarda ehtiyojmand oilalar "yalqov", "harakatchan emas" kabi tamg'alar orqali tibbiy qilingani kuzatiladi; bunda jamiyat go'yo "o'zi kambag'al – o'zi aybdor" degan

noto'g'ri fitnaning ta'sirida bo'ladi. Holbuki, real hayotda har qanday odam qashshoqlikka duch kelishi mumkin – bu ba'zan shaxsiy xatolar emas, balki iqtisodiy sharoitlar, baxtsiz hodisalar yoki boshqa omillar natijasida sodir bo'ladi. Shunday ekan, jamiyatning yetukligi shunda namoyon bo'ladiki, u kambag'allikka uchragan o'z a'zolarini ayblamaydi, aksincha, ularni qo'llab-quvvatlashga harakat qiladi [3]

O'zbekistonning an'anaviy madaniyatida mahalla instituti, qo'shnichilik va o'zaro yordam kabi qadriyatlar kambag'allarga nisbatan mehr-oqibatli munosabatda bo'lishni targ'ib qiladi. Lekin ayrim hollarda, ayniqsa shahar muhitida individualizm kuchayganda, ijtimoiy birdamlik susayishi ham mumkin. Kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligini oshirish uchun jamiyatda ularni qo'llab-quvvatlovchi muhit hukm surmog'i zarur: bu – maktabdagi o'qituvchilarning, qo'ni-qo'shni va tengdoshlarning hurmat bilan munosabatda bo'lishi, ularni rag'batlantirishi demakdir. Shu bilan birga, kambag'allik uchun stigmani yo'q qilish, ya'ni "qashshoqlik – sharmandalik emas, balki hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy muammo" degan tushunchani jamiyat ongiga singdirish kerak.

YuNISEFning ma'lum qilishicha, butun dunyoda qashshoq insonlar o'z tashqi ko'rinishi yoki yashash joyi tufayli adolatsiz muomalaga uchrab, o'zlarini hurmatsizlangandek va nochor his qilishadi. Demak, mahalliy darajada ham kambag'allarga nisbatan kayfiyatni ijobiy tomonga o'zgartirish – ularga ishonch bildirish va teng fuqaro sifatida qabul qilish – bolalarning ijtimoiy hayotga integratsiyasida muhimdir.

Davlat siyosati va ijtimoiy himoya tizimi kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligini ta'minlashda asosiy omillardandir. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlar kambag'al oilalarning farzandlariga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish, ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimiga teng kirish imkonini yaratishga qaratilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, agar ijtimoiy nafaqalar bo'lmaganida, bolalar kambag'alligi 13,7% o'rniga 21,8%ga yetgan bo'lardi. Bu esa ijtimoiy himoya dasturlarining dolzarbligini ko'rsatadi [4]

Davlat siyosati nafaqat moddiy ko'mak, balki teng imkoniyatlarni ta'minlashga ham yo'naltirilgan. Masalan, maktablarda bepul darslik va issiq ovqat berish, bog'chalarga kam ta'minlangan oilalar bolalarini ustuvor asosda qabul qilish, oliy ta'lim yotoqxonalarida bepul joylashtirish kabi chora-tadbirlar tenglikni mustahkamlamoqda.

Shuningdek, "El-yurt umidi" jamg'armasi va boshqa davlat dasturlari orqali kambag'al oilalarning iqtidorli farzandlari uchun xorijda o'qish va kasbiy rivojlanish imkoniyatlari yaratilmoqda. Nodavlat notijorat tashkilotlari ham ijtimoiy yordam, xayriya va ta'lim loyihalari orqali bolalarning ijtimoiylashuviga hissa qo'shmoqda. "Mahalla" instituti, "Sog'lom avlod uchun", "Mehr shu'lasi" kabi fondlar bu yo'nalishda faol ishlamoqda.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar ishtirokida ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'limni rivojlantirish va infratuzilmani yaxshilash bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Mercy Corps tomonidan 60 dan ortiq bog'cha modernizatsiya qilinib, minglab bolalar qamrab olindi.

Ta'lim tizimi ijtimoiy adolatni ta'minlashda hal qiluvchi omil bo'lib, maktablarda tenglik muhitini yaratish, kambag'al oila bolalariga qo'shimcha dars va yordamchi dasturlar joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat tomonidan kontrakt to'lovining 50 foizigacha qoplab berish, bepul kasb-hunar kurslarini tashkil etish kabi choralar bu jarayonni yanada kuchaytirmoqda.

Shuningdek, hududiy tengsizlikni kamaytirish, infratuzilma va internet imkoniyatlarini kengaytirish orqali chekka hududlardagi bolalar uchun ham teng sharoitlar yaratilmoqda. Umuman olganda, O'zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan "Temir daftar", "Kambag'al oilalar reyestri" va "Qashshoqlikdan farovonlik sari" kabi dasturlar kambag'allikni kamaytirish va yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim natijalar bermoqda.

2025-yil 8-maydagi Prezident Farmoni (№UP-84) bilan kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash tizimi yangi bosqichga ko'tarildi. 2025-yil 15-maydan kambag'al oilalar reyestri "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratilib, har bir toifaga mos ijtimoiy yordam mexanizmlari belgilandi. "Qizil" toifa – eng muhtoj, "sariq" – mehnatga layoqatli, "yashil" – qayta kambag'allikka tushish xavfi mavjud oilalarni o'z ichiga oladi. Ushbu tizim yordamida davlat yordami aniq manzillarga yo'naltirilib, samaradorlik oshirildi.

2025-yil 1-iyundan "qizil" toifadagi oilalardan chiqqan a'lochi talaba-qizlarga ikki baravar bazaviy stipendiya tayinlandi. 1-sentyabrdan esa kambag'al oilalar farzandlari uchun maktablarda uzaytirilgan kun guruhlar kvotasi joriy etilib, ota-onalar to'lovidan ozod qilindi. 2026-yil 1-yanvardan bunday oilalarning a'lochi farzandlari yozgi oromgohlarga bepul yuboriladigan bo'ldi [5].

Kambag'allikka qarshi kurashda "Barcha uchun bepul kasb-hunar" dasturi, "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" tizimlari muhim o'rin tutmoqda. Ular orqali ishsiz yoshlar kasbga o'qitilib, tadbirkorlikni boshlash uchun grant va subsidiya olmoqda. Bu tashabbuslar natijasida minglab yoshlar o'qish, ish va biznes imkoniyatiga ega bo'ldi.

2023-yil "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da mahalla instituti orqali kambag'allikni qisqartirish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Temir daftar" tizimlari orqali 1,5 millionga yaqin aholi turmush sharoiti yaxshilandi. Shu bilan birga, "Qashshoqlikdan farovonlik sari" dasturi asosida imtiyozli kreditlar, foizsiz qarzar, noutbuk va kasb uskunalari xaridi uchun yordam mexanizmlari yo'lga qo'yildi.

Ta'lim sohasidagi islohotlar ham kambag'allikni kamaytirishda muhim omil bo'ldi. 2017–2025-yillarda oliy ta'lim muassasalari soni ko'payib, qabul kvotalari kengaydi. Talabalar soni 5 barobarga ortib, 1,1 million nafardan oshdi. Bu minglab kam ta'minlangan yoshlarning oliy ta'limga kirish imkonini yaratdi [6].

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan kompleks islohotlar kambag'allikni kamaytirish, yoshlar bandligini oshirish va kambag'al oila farzandlari uchun teng imkoniyatlar yaratishda samarali natijalar bermoqda. Bu chora-tadbirlar jamiyatda ijtimoiy adolat va farovonlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish borasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda moliyaviy va texnik ko'maklar jalb qilinmoqda. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va YuNISEF kabi tashkilotlar mablag'lari hisobidan bolalar huquqlari hamda ijtimoiy himoya tizimini kuchaytirish yo'nalishida bir qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, YuNISEF tashabbusi bilan bolalar kambag'alligi darajasini aniqlash va ijtimoiy nafaqalarning samaradorligini oshirishga qaratilgan tahlillar olib borildi. Natijada ijtimoiy to'lovlarni adolatli taqsimlash, haqiqiy muhtojlarga yetkazish mexanizmlari takomillashtirildi.

Shuningdek, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida kam ta'minlangan oilalarga imtiyozli kreditlar berilib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali daromad manbalari

kengaytirildi. Bu nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlab, bolalar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ayni paytda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha dastlabki ijobiy natijalar kuzatilmoqda. Bu jarayon uzoq muddatli bo'lsa-da, kompleks yondashuv va siyosiy iroda tufayli qisqa muddatda sezilarli o'zgarishlarga erishilmoqda. Muhimi, kambag'al oila farzandlari uchun mavjud to'siqlar bosqichma-bosqich bartaraf etilib, ularning ijtimoiy faolligi ortib bormoqda.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, kambag'al oila farzandlarining ijtimoiy faolligini oshirishda individual va ijtimoiy omillar uzviy bog'liq. Bolaning o'zini qadrlashi, psixologik qo'llab-quvvatlov, teng imkoniyatli ta'lim muhiti va jamiyat e'tibori uning ijtimoiy o'sishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shu sababli, maktab va mahalla darajasida psixologik yordam, mentorlik tizimi, jamoaviy tadbirlar hamda inklyuziv muhitni rivojlantirish zarur. Ana shundagina har bir bola jamiyatda faol, tashabbuskor va o'z o'rnini topgan shaxs sifatida voyaga yetadi [7].

Ijtimoiy omillar bo'yicha, davlatning manzilli ijtimoiy himoya siyosati izchil davom ettirilishi lozim. Kambag'allikka qarshi kurashda erishilgan dastlabki natijalarni mustahkamlash uchun ijtimoiy nafaqalar mablag'lari yetkazib berish samaradorligini oshirish kerak. Yagona reyestrlar orqali nafaqat moddiy yordam, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va kasbga o'qitish xizmati kabi "non-moddiy" ko'maklarni ham integratsiya qilish taklif etiladi. Masalan, har bir kam ta'minlangan oila bolasi uchun individual "ijtimoiy paket" ishlab chiqilib, unga bepul bog'cha, bepul to'garak, yillik sanitariya, kitob-nafarotlar olish kartasi kiritilishi mumkin. Bunday yondashuv bolaning barcha jihatdan qo'llab-quvvatlanishini kafolatlaydi. Shuningdek, kambag'allikni kamaytirish yo'lida amalga oshirilayotgan oilaviy tadbirkorlik loyihalarini davom ettirish kerak. Chunki oila daromadi oshsa, bu bolalar hayotiga bevosita ijobiy ta'sir qiladi. Ayniqsa, qishloq joylarda qizlar va o'g'il bolalarni ish bilan ta'minlashga qaratilgan tikuvchilik, hunarmandchilik markazlari ko'proq tashkil etilishi maqsadga muvofiq – bu bilan o'smir bolalarning boqimandalik kayfiyatidan chiqib, mehnat orqali o'zini namoyon qilishiga yo'l ochiladi.

Xulosa. Kambag'allikni kamaytirish jarayoni faqat iqtisodiy masala emas, balki ijtimoiy adolat, barobarlik va inson qadrini ulug'lash tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Har bir bolaning hayotda munosib o'rin topishi uchun teng imkoniyatlar yaratish — jamiyatning ma'naviy yetukligi va kelajak barqarorligining muhim kafolatidir. Bolalarga kambag'al yoki boy degan mezon asosida emas, balki inson sifatidagi qadr-qimmatini orqali munosabatda bo'lish — haqiqiy adolatli jamiyatning mezonidir.

Shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining faol ishtiroki kambag'allik muammosini hal etishda beqiyos ahamiyatga ega. Davlat va NNTlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, mahalliy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash, grant va rag'bat tizimini rivojlantirish orqali ijtimoiy sheriklikning yangi madaniyatini shakllantirish mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining mas'uliyatli yondashuvi esa jamiyat ongida ijobiy o'zgarishlar, hamdardlik va mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytiradi. Kambag'al oilalar farzandlari hayotidan ibratli misollar keltirish, ularning orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash yosh avlodga umid, ishonch va ijtimoiy faollikni uyg'otadi.

Demak, kambag'allikka qarshi kurashda asosiy g'oya — inson qadrini yuksaltirish, har bir bolaning hayotda o'z o'rnini topishiga ko'maklashishdir. Ana shundagina, "Yangi

O'zbekiston" barqaror, adolatli va ijtimoiy jihatdan uyg'un jamiyat sifatida yanada ravnaq topadi.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. МАТ. Т.14. –Тошкент: Фан, 1998. –Б. 12.
2. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр – Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989.
3. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Табаррук рисолалар. –Тошкент: Адолат, 2007.–Б. 109.
4. Кузьмин К.В., Сутырин Б.А. История социальной работы за рубежом и в России (с древности до начала XX века). - М.: Академический проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2002. - С. 11.
5. Ганиева М.Х. Ижтимоий иш асослари. Методик қўлланма. –Т.: 2010, 9-бет.
6. Хусейнова, А. А. (2010). Торговля людьми: попытка противодействия. Социологические исследования, (11), 150-151.
7. БМТ Европа Иқтисодий комиссияси. “Камбағалликни ўлчаш бўйича қўлланма”. 2017 йил.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/10 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).